


Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development”
Published in Aug-2021

Efficiency of Investment in Modernization of Agriculture

Shodmonov Kobiljon Qahramon Ogli

Annotatsiya: Bugungi kunda va istiqbolda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash chora-tadbirlarni oqilona amalga oshirish, tarmoq korxonalarini faoliyatiga innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi investitsiyalar oqimini kengaytirish, tarmoqda innovatsion faoliyat va faollikni rag'batlantirish chora-tadbirlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi kundagi dolzARB muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada qishloq xo'jaligini rivojlantirish va modernizatsiyalashga sarflanayotgan investitsiyalar samaradorligiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatga egadir.

Калил сўзлар: investitsiya, yuqori texnologiyalar, resurstejamkor texnologiyalar, agrar tarmoq, suv xo'jaligi, investitsiyalar samaradorligi, suv xo'jaligi ob'ektlari, yerlarning sho'rланishi.



Deputy Mayor of Karshi, Head of Investment and Foreign Trade Department

Kirish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni qishloq xo'jaligi bilan bog'liq innovatsion ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga jalb qilish, uning natijalarini ishlab chiqarishga tezkor tadbiq etish, istiqbolda agrar sohada ishlab chiqarish salohiyati va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy, texnik-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalişlarida olib boriladigan islohotlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylantirish bugungi kunning talabidir.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda va istiqbolda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash chora-tadbirlarni oqilona amalga oshirish, tarmoq korxonalarini faoliyatiga innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi investitsiyalar oqimini kengaytirish, tarmoqda innovatsion faoliyat va faollikni rag'batlantirish chora-tadbirlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "2021-2023 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Republikasi Prezidenti qarorida "...928,3 trln so'm miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, jumladan 37,5 mlrd AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi 2021-2023 yillarda kapital qo'yilmalarni o'zlashtirishning yig'ma prognoz parametrlari, shuningdek, 2021-2023 yillarda investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish hamda jalb qilishning prognoz parametrlari hamda 226 ta yangi ishlab chiqarish quvvati va 34 mingdan ziyod ish o'rni yaratilishini nazarda tutuvchi 2021 yilda yirik ishlab chiqarish ob'ektlari va quvvatlarini ishga tushirish bo'yicha manzilli dastur" larda belgilanganligidek, mamlakatimizda xom ashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishslashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu asosda yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilayotganligidan dalolatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladigan bo'lsa, bu o'rinda "investitsiya" tushunchasining molivaviy, mulkiy va intellektual (aqliy) qadriyatlarni takror ishlab chiqarishning in'ikosi bo'lmish dastlabki va asosiy tushuncha bo'lib maydonga chiqishini unutmaslik kerak. Ko'pgina iqtisodiyotchi olimlar va amaliyotchilarining asarlarida investitsiya va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa muammolar to'g'risida fikrlar bor. Masalan, professor Ye.V.Mixaylovaning fikricha, "investitsiya bu - sub'ekt ixtiyoridagi barcha molivaviy, moddiy va boshqa boyliklarni kelajakda iqtisodiy samara olish uchun biror ob'ektga sarflashdir". Bu o'rinda investitsiyaning mohiyati bilan mazmunini bozor iqtisodiyotiga moslashtirib ochib berishga harakat qilingan.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmunining ko'p qirraliligi unga berilgan ta'riflarning o'zida ham namoyon bo'ladi. Jumladan, Sh.Shodmonov, R.Alimov va T.Jo'raevlar: "Investitsiyalar - asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикасининг 2021- 2023 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. 28.12.2020. ПК-4937-сон

deyiladi”, deb ta’kidlaydilar².

D.Tojiboyeva investitsiyalarni quyidagicha ta’riflaydi: “Investitsiya deganda kelajakdagи natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruktsiya qilish, mahsulot va xizmatlarni sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga mo’ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi”³. Bundan ko’rinadiki, muallif mazkur ta’rifda investitsion faoliyat yo’nalishlariga urg’u berib o’tadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Investitsiya resurslarini shakllantirish investitsiya jarayonini amalga oshirishning boshlang’ich bosqichi hisoblanadi. Aniq loyiha kapitalini investitsiyalash va moliyalashtirish turlari bu resurslarga zarur miqdorda shakllantirishni talab etadi. Qishloq xo’jaligi korxonalarining moliyaviy investitsiya dasturlariga qaratilgan investitsiya resurslarini shakllantirmasdan investitsiya jarayonini amalga oshirib bo’lmaydi. Shuningdek, bu jarayon kapitalni dastlabki jamg’arish jarayoni bilan bevosita bog’liqidir. U qishloq xo’jaligi korxonalarining foydani taqsimlash doirasida va milliy daromadni taqsimlash jarayonida davlat miqyosida amalga oshiriladi. Investitsiya resurslarini shakllantirishning tashqi manbai bo’lib, har xil xo’jalik yurituvchi sub’ektlar va aholi daromadini jamg’arish hisoblanadi. Ko’pchilik hollarda daromadni dastlabki jamg’arish salmog’i davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

Qishloq xo’jaligi korxonalarining investitsiya resurslarini ma’lum darajada shakllantirishning asosi bo’lib, xo’jalikning o’z kapitali hisoblanadi. Investitsiya resurslarini shakllantirish jarayonidagi bunday investitsiya kapitalining shakli bo’lib:

- asosiy vositalar va amortizatsiya qilinadigan moddiy aktivlar bo’yicha amortizatsiya ajratmalari;
- hisobdan chiqariladigan kapital aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;
- vaqtincha bo’sh turgan bino, inshoot va texnikalarni ijraga berishdan tushadigan daromadlar;
- chorva mollarini sotishdan keladigan daromadlari;
- investitsiyalashning ayrim moliyaviy vositalarini sotishdan olingan tushumlar hisoblanadi.

Qishloq xo’jaligi korxonalarida investitsiya resurslarini shakllantirish jarayoni uning faoliyati davomida yuz beradi va doimiy xarakterga ega bo’ladi. Bu jarayon korxonaning investitsion faoliyati davomida har xil manba va salmoqqa hamda xususiyatlarga ega bo’ladi. Birinchi xususiyati shundan iboratki, investitsiya resurslarini shakllantirish jarayonining qishloq xo’jaligi korxonalarini investitsiyalashning barcha bosqichlari bilan bog’liqidir. Dastlabki investitsiyalash bosqichi investitsiya resurslarini shakllantirishda aniq loyiha ishlab chiqishni, loyiha ishlarini bajarish va ularni ekspertiza qilishni moliyalashtirish uchun amalga oshiriladi. Investitsiyalash bosqichida ular zarur qurilish-montaj ishlarini bajarishi yoki ayrim vositalarni sotib olishi mumkin.

Qishloq xo’jaligida investitsiya mablag’laridan foydalanishda uning barcha tarmoqlarini bir-

² Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. “Иктисодиёт назарияси”, -Т., “Молия” нашриёти, 2002, 277.

³ Тожибоева Д. “Иктисодиёт назарияси”: 2-китоб: Олий ўкув юртлари талабалари учун ўкув кўлланма. -Т. “Шарқ”, 2003, 79-6.

biriga bog'lagan holda uyg'un rivojlantirish, har xil yo'nalish va turdagi investitsiya sarflarining iqtisodiy samarasini oshirishni ko'zda tutadi.

Investitsiyalar samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Bevosita ishtirokchilar uchun loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi tijorat (moliyaviy) samaradorlik ko'rsatkichi.
2. Mamlakat, hudud va mahalliy byudjetda investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijalarini ifoda qiluvchi byudjet samaradorligi ko'rsatkichi.
3. Mamlakat, hudud, tuman yoki shahar, shuningdek ishtirokchilar manfaatini hisobga oluvchi va loyiha bo'yicha natijalarni hamda xarajatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi.

Investitsiya mablag'inining samaradorligi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi:

Birinchidan, mehnat birligida tejalgan jonli mehnat. Bu ko'rsatkich investitsiya mablag'lari sarfida mehnat unumdarligining qay darajada o'sgan hamda mehnatning yengillashganligi bilan ifodalanadi.

Ikkinchidan, mahsulot birligini yetishtirishda qilingan umumiylar xarajat. Bu ko'rsatkich kapital mablag' sifatidan mahsulot tannarxi pasayganligini ko'rsatadi.

Uchininchidan, 1 so'mlik investitsiya hisobiga iqtisod qilingan mablag'. Bu ko'rsatkich investitsiya mablag'i sarfida pul mablag'idan qay darajada foydalanishni ko'rsatib, bir vaqtning o'zida investitsiya mablag'inining rentabelligini ham o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, sarflangan investitsiya mablag'ini tiklash muddati. Bu ko'rsatkich investitsiya mablag'i sarfining qoplanish muddatini ko'rsatadi.

Beshinchidan, investitsiya mablag'inining ulushi. Bu ko'rsatkich 1 ga ekin maydonida yetishtirilgan mahsulot, 1 so'mlik mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajat, innovatsion tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflanadigan investitsion mablag'lar miqdorini o'z ichiga oladi.

Har bir korxonaning o'z sharoitidan kelib chiqib, investitsiya bilan ta'minlanishiga qarab investitsiya mablag'laridan samarali foydalanishning quyidagi faktorlari mavjud:

- investitsiya qo'yilmalari bilan kompleks ta'minlanishi hamda uni proportsional tarzda yo'naltirilishi;
- investitsiya qo'yilmalarining yangi loyihalarini tezlatib o'rtadagi vaqtdan, fonddan foydalanib samaradorlikni oshirishga erishish;
- korxonada mavjud investitsiya mablag'lari hisobiga korxonalarni rekonstruktsiyalashni tezlatish;
- korxonalarda, qurilish ob'ektlarida mehnat, moddiy resurslardan tejamli foydalanish;
- investitsiya loyihalarida moddiy rag'batlantirish, ish yuritish, mehnatga haq to'lash va hokazolarni tashkil etishdan iborat.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishi investitsiya faoliyatini amalga oshirish mexanizmini o'zgartirishga olib keldi, ya'ni investitsiya resurslarini

markazlashgan holda taqsimlashdan bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarasi asosida investitsiyalashni hayot zaruriyatiga aylantirdi. Biroq, chet el va mahalliy investorlarni qo'yanan mablag'lari tezroq qaytadigan va yuqori daromad keltiradigan sohalar ko'proq qiziqtiradi.

Agrar soha ishlab chiqarishi ko'proq tabiiy omillarga bog'liqligi va foyda yil yakunida olinishi bilan investorlarni o'ziga jalb eta olmaydi. Biroq, xizmat ko'rsatish, yer va qishloq resurslaridan samarali foydalanish kabi sohalariga yirik, megaloyihalar shaklidagi uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish, albatta, katta foyda keltiradi. Yuqorida qayd qilingan ishlab chiqarish yo'nalishlariga kiritiladigan kapital qo'yilmalarning samaradorligini loyiha ishlab chiqilayotgan davrda hisob-kitob qilish va investorlarning ishonchini qozonish muhim amaliy ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash boshqa sohalarga qaraganda tubdan farq qilmaydi. Biroq, tarmoqqa investitsiya mablag'larini jalb qilishning o'ziga xos yo'nalishlarini alohida ta'kidlash zarur.

Agrar tarmoqda suv xo'jaligi irrigatsiya tizimini ta'mirlash va tiklash ishlari uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag' talabga nisbatan 65-70 foizni tashkil etmoqda. Fermer xo'jaliklarida esa erkin mablag'larning yetishmasligi bois, suv iste'molchilarini uyushmalari hisobidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va ta'mirlash ishlari esa bundan ham ancha past bo'lmoqda.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindan, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini tizimli boshqarish, ya'ni suv xo'jaligi tizimini boshqarish va undan samarali foydalanish chorasi ko'rilmasa, kelgusida iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishida muammolar kelib chiqishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar tarmog'i ichida suv xo'jaligi o'ziga xos o'rinni va ahamiyatga ega. Shu sababli tarmoqda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot va xizmatlar tannarxini kamaytirish mayjud texnika inshootlarni doimiy ravishda yangilab borish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali innovatsion ishlanmalarni joriy etish ishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz istiqbolda qishloq xo'jaligi tarmog'ini bozor talablari doirasida shakllantirish va rivojlantirish uchun tarmoqning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun qishloq xo'jaligini zamonaviy bino-inshootlar, barcha turdag'i zamonaviy texnika va texnologiyalar, gidrotexnika inshootlari hamda boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'mirlash lozim. Tarmoqni modernizatsiyalash, suv xo'jaligi ob'ektlari va inshootlarini ta'mirlash, yangilarini qurish kabi tadbirlarni amalga oshirish uchun tarmoqning investitsion jozibadorligi va faolligini oshirish lozim.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 98% sug'oriladigan yerlardan olinmoqda. Respublika bo'yicha sug'orish uchun yiliga o'rtacha 55 mlrd.m³ suv talab etiladi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo respublikalarida iste'mol qilinadigan suvning deyarli yarmiga tengdir. Respublikada foydalanilayotgan suvning 80% idan ko'p qismi qo'shni davlatlar hududlaridan oqib keladi. Yerlar sho'rlanishining oldini olish, shuningdek, ariqlar va kollektorlarda suvning yerga singish darajasini kamaytirish, sug'orish uslubiyatining foydali koeffitsientini ko'tarish, bir kompleks gektar yerga berilayotgan suv hajmini pasaytirish hisobiga foydalanilmay chiqarib yuborilayotgan suv hajmini kamaytirish choralarini ko'rish kerak.

Shuni hisobga olib, suv xo'jaligi tizimining faoliyati sug'orish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Undan tashqari sug'orishning progressiv

texnologiyalarini joriy qilish katta kapital mablag' sarfi bilan bog'liq. Bunday mablag' ko'pchilik suvdan foydalanuvchilarda yo'q. Shuning uchun bu muhim masala davlat miqyosida maxsus dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Fikrimizcha, banklar tomonidan yerlarni sug'orish texnologiyasini takomillashtirish uchun uzoq muddatli, yillik foizi kamaytirilgan imtiyozli kreditlar ajratilishi lozim. Suv xo'jaligi majmuasi shu kreditlar asosida suvdan foydalanuvchilar yerlarida sug'orishning yangi texnologiyasini joriy qilish bo'yicha ish olib borishi kerak. Bu masalaning hal qilinishi, birinchidan, yerlar sho'rланib ketishining oldini olish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, har bir gektarga sarflanayotgan suv miqdorini kamaytiradi, uchinchidan esa, sug'orishda mehnat unumidorligi oshib, o'simliklarning sug'orish davri qisqaradi.

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsion faollikni oshirish, xususan suv xo'jaligi tizimida investitsiya muhitini yaxshilash, o'z navbatida iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish imkoniyatining kengayishiga sabab bo'ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ko'rsatishicha, mamlakatimizda sug'oriladigan yerlardan foydalanishda hamda ekspluatatsion va meliorativ xaratatlarni qoplashda davlatning hamda bevosita suvdan foydalanuvchilarning ulushli ishtiropi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda suv xo'jaligi tizimi irrigatsion tarmoqlari barcha xaratatlarining 40 foizi miqdoridagi ulushi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanmoqda.

Hozirgi davrda investitsion mablag'lar yangi, samarali texnologiyaga hamda intellektual mulkni barpo etishga ham sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Bu muammoning to'g'ri, samarali hal etilishi ma'lum miqdordagi investitsiyalar sarflanishini ob'ektiv ravishda talab etadi.

Shu bois, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- tender asosida raqobatbardosh loyihalarni tanlash. Bu suv xo'jaligida investitsion loyihalar bozori barpo etilishini ta'minlaydi;
- suv xo'jaligi uchun mo'ljallangan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanishi. Suv xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlari real hisobga olingan holda iqtisodiy-ijtimoiy natijalari aniqlangan bo'lishi zarur;
- suv xo'jaligi tizimini moliyalashtirish bugungi kunda asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda. Lekin ajratilgan mablag'lar tizim barqarorligini ta'minlashda kamlik qilmoqda. Shu sababli suv xo'jaligi tizimini boshqa moliyaviy resurslar, jumladan tashqi investitsiyalarni jalb qilish asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Barcha omillarni e'tiborga olgan holda sarflanadigan investitsiyalar suv xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etadi. Ular yangi ish joylari barpo etilishini ta'minlaydi, suv xo'jaligida band bo'lgan tadbirkorlarning bilimlarini, malakalarini yuksaltiradi, bozor munosabatlarini shakllantiradi. Ularning uyg'unlashishi natijasida tarmoqda xizmat ko'rsatish va yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'paytirilib, raqobatbardoshligi oshadi. Bu, o'z navbatida, aholini va davlat talabining qondirilishini ta'minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini yuksaltiradi. Bularning hammasi investitsiyalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, bugungi kunda suv xo'jaligida bir qancha muammolar uchraydiki, ularni bartaraf etish uchun ham tarmoqda investitsion faollikni oshirishni zaruriyat qilib qo'yadi, jumladan:

- tizim korxonalarining asosiy fondlari va zaruriy texnologik vositalarning ma'nан va jismonan eskiranligi va ta'minlanish darajasining pastligi;
- amortizatsiya fondidan foydalanishning keskin qisqarishi;
- suv xo'jaligida fan yutuqlaridan, shu jumladan yangi texnologiyalardan foydalanish darajasining juda pastligi va boshqalar.

Bizningcha, suv xo'jaligida investitsiyalarni samarali joylashtirish quyidagi muhim masalalarning hal etilishiga xizmat qiladi:

birinchidan, suv xo'jaligi tizimida investitsiya va investitsion faollik tushinchalarining iqtisodiy ijtimoiy mohiyatini olib berish;

ikkinchidan, qishloq va suv xo'jaligi va uning alohida tarmoqlari xususiyatlariga mos ravishda investitsion faollik iqtisodiy kategoriyalarining o'zaro bog'liqlik, to'ldiruvchanlik, aloqadorlik va ta'sir etish jihatlarini asoslash;

uchinchidan, suv xo'jaligi tizimida investitsion jozibadorlikni oshirish omillaridan unumli foydalanish natijasida paydo bo'ladigan yangi zaxiralar miqdorini aniqlash va uni ishga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Umuman olganda, investitsiyalar suv xo'jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, tarmoq korxonalarini va investitsiyalarning sarflanishi, ularning fond bilan yuqori darajada qurollanishi darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Chunki, suv xo'jaligini asosiy fondlar bilan ta'minlab, uning samarasini oshirish investitsiyalash darajasiga bog'liqdir. Tizimda asosiy fondlarni tiklash, to'ldirish, takomillashtirish va ko'paytirish uchun ajratilgan mablag' investitsiya mablag'i deb yuritiladi. Bunda ishlab chiqarishga bog'liq va bog'liq bo'limgan asosiy fondlarni yangilash va eskilarini takomillashtirish hamda qo'shimcha yangilarini sotib olishga ketgan mablag'lar tushuniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatini amalga oshirish mexanizmini o'zgartirishga olib keldi. Ya'ni, investitsiya resurslarini markazlashgan holda taqsimlashdan bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini asosida investitsiyalashni hayotiy zaruriyatga aylantirdi. Biroq, chet el va mahalliy investorlarni qo'ygan mablag'lari tezroq qaytadigan va yuqori daromad keltiradigan sohalar ko'proq qiziqtiradi. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va ko'proq tabiiy omillarga bog'liqligi investorlarni o'ziga jalb eta olmaydi.

Shu sababli tarmoqqa investitsiya mablag'larini jalb qilishning o'ziga xos yo'nalishlarini alohida belgilab berish zarur.

Umuman olganda, istiqbolda investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida qishloq xo'jaligi korxonalarining nafaqat kreditga layoqatliliginani aniqlash, balki ularning loyiha tahlillari hamda samaradorligiga ham e'tiborini qaratish zarur. Bu esa, investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishini va moliyalashtiruvchi muassasa tomonidan uning jozibadorligi yoki foydaliliga to'la ishonch hosil qilishni taqozo qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикасининг 2021- 2023 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида. 28.12.2020. ПК-4937-сон

2. Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. "Иқтисодиёт назарияси", -Т., "Молия" нашриёти, 2002, 277-6.
3. Тожибоева Д. "Иқтисодиёт назарияси": 2-китоб: Олий ўкув юртлари талабалари учун ўкув қўлланмана. -Т. "Шарқ", 2003, 79-6.
4. Шохужаева Зебо Сафоевна. Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов // Economics. 2020. №1 (44). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-v-selskom-hozyaystve-po-ispolzovaniyu-vodnyh-resursov>.
5. Shoxo'jayeva Z. S., Norqobilov M. Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan //Наукаитехника. Мировыеисследования. – 2020. – С. 25-28. обращения: 03.03.2021).
6. Efficiency Of Formation And Use Of Water Resources In Irrigated Agriculture Of The Republic Of Uzbekistan. ZS Shoxujaeva, MN Utkirovna - The American Journal of Interdisciplinary Innovations, 2020
7. Шохўжаева З.С., Маманазарова Н.Ж. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии //Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хукуқий ва инновацион жиҳатлари. – 2020. – С. 329-333.
8. Shoxo'jayeva Z. S. Problems and solutions in the water sector of the region //Наукаитехника. Мировыеисследования. – 2020. – С. 21-24.
9. Шохўжаева З.С., Акбарова Ш.Я. Эффективность инвестиций в экономику Кашкадаринской области //Минтақа иқтисодиётини инвестиациялашнинг молиявий-хукуқий ва инновацион жиҳатлари. – 2020. – С. 203-208.
10. Z.S. Shoxujaeva. Economic efficiency of water resources use in the agricultural sector. Monograph. T.: "Economy and Finance" Publishing House, 2012.<http://scholar.google.com/scholar?cluster=9083367974115155298&hl=en&oi=scholarr>
11. Shoxujaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. https://cibg.org.au/index.php/cibg/article/view/article_10445.html
12. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Samandarov Mirzoxid Mirjamilovich. Development of entrepreneurship and improvement of organizational and economic bases of its state regulation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00780.1.
13. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Murodova Nargiza Utkirovna. Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00531.0
14. Shoxo'jaeva Zebo Safoevna, Temirova Feruza Sagdullaevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.492. DOI 10.5958/2249-7137.2021.00535.8.